



XALQ DEPUTATLARI YANGIHAYOT TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 29-dekabr II-24-142-14-220-K/25 Yangihayot tumani

Yangihayot tumanining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, O'zbekiston Respublikasining "2026-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi 2025-yil 25-dekabrda O'RQ-1105-son Qonuniga va xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining 2025-yil 27-dekabrda VII-18-207-14-0-K/25-son qaroriga muvofiq hamda Toshkent shahar hokimligining 2025-yil 26-dekabrda 02-3662-son murojaat xatini inobatga olib, xalq deputatlari Yangihayot tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasining "2026-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuni hamda xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining 2025-yil 27-dekabrda VII-18-207-14-0-K/25-son qarori (keyingi o'rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qarorga muvofiq, Yangihayot tumani budjetining 2026-yilgi daromadlari **103 263 129 ming so'm** va xarajatlari esa **103 263 129 ming so'm** miqdorida ma'lumot uchun qabul qilinganligi hamda Yangihayot tumani budjetining shaxsiy g'azna hisobvarag'ida turgan budjet mablag'larining yo'l qo'yiladigan eng kam miqdori **1 057 388,0 ming so'm** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Quyidagilar:

Tuman mahalliy budjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko'rsatkichlari 1-ilovaga;

Tuman mahalliy budjetidan 2026-yilda hududiy budjet mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga;

Yangihayot tumani mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar me'yorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman budjeti zaxira jamg'armasi hajmi 2026-yil uchun **953 610,0 ming so'm** miqdorida belgilansin.

Bunda, zaxira jamg'armasi mablag'larini amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo'lmaydigan xarajatlarni, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo'lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilishi inobatga olinsin.

5. Toshkent shahar Kengashining 2025-yil 27-dekabrdagi VII-18-207-14-0-K/25-son qarorining 8-bandiga muvofiq:

a) tuman budjetiga to'liq hajmda o'tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

noruda qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;

davlat aktivlarini ijaraga berishdan tushumlar;

b) quyidagi soliq turlari va boshqa majburiy to'lovlar Toshkent shahar mahalliy budjeti hamda tuman mahalliy budjetlari o'rtasida taqsimlanadi:

aylanmadan olinadigan soliq;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq (yirik soliq to'lovchilar tomonidan to'lanadigan soliqlar bundan mustasno);

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i (yirik soliq to'lovchilar tomonidan to'lanadigan soliqlar bundan mustasno);

mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiyaga asosan jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan;

qo'shilgan qiymat solig'i Toshkent shahar mahalliy budjetiga tushgan tushumlardan 5 foiz miqdorida (yirik soliq to'lovchilaridan tashqari);

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i Toshkent shahar mahalliy budjetiga tushgan tushumlardan (jismoniy shaxslar mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiyaga asosan to'laydigan, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar to'laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan tashqari) 5 foiz miqdorida (yirik soliq to'lovchilaridan tashqari);

foyda solig'i Toshkent shahar mahalliy budjetiga tushgan tushumlardan (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadigan ro'yxatga muvofiq yirik soliq to'lovchilar, O'zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali faoliyatni amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek, norezidentlarning to'lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to'lanadigan foyda solig'idan tashqari) 5 foiz miqdorida (yirik soliq to'lovchilaridan tashqari);

davlat bojlari;

yig'imlar;

jarimalar.

6. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari A.Maxmudov, tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi A.Nurmatov, tuman soliq inspeksiyasi A.Malikov bilan birgalikda 2026-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko'rsatkichlarni o'z vaqtida va samarali bajarilishini ta'minlash choralari ko'rsin.

7. Hududiy budjet mablag'larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan budjet mablag'larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, hududiy budjet mablag'larini taqsimlovchilar:

budjetdan ajratilgan mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to'liq rejalashtirilishi va o'z vaqtida to'lanishi;

o'zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to'g'ri tuzilishi;

budjetdan ajratilgan mablag'larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to'liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga budjetdan ajratiladigan mablag'larning to'g'ri taqsimlanishi;

o'z tasarrufidagi tizimda budjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini;

budjet jarayonining ochiqligini ta'minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma'lumotlarni joylashtirib borilishini ta'minlasinlar.

8. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9. Xalq deputatlari Yangihayot tumani Kengashining 2024-yil 27-dekabrda "Yangihayot tumanining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to'g'risida"gi II-5-025-14-220-K/24-son qarori o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

10. Ushbu qaror 2026-yil 1-yanvardan e'tiboran kuchga kiradi.

11. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Yangihayot tumani Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



**INOAMOV
XAYOT
ILYASOVICH**

Xalq deputatlari Yangiheyot tumani
Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
II-24-142-14-220-K/25 -son qaroriga
1-ilova

**Yangiheyot tuman mahalliy budjeti daromadlarining 2026-yil uchun
prognoz ko'rsatkichlari**

ming so'mda

T/R	Daromad turlari	Miqdori
JAMI		103 263 129,0
1	Foyda solig'i	664 185,0
2	Aylanmadan olinadigan soliq	1 497 500,0
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	819 854,0
4	Mol-mulk ijarasidan tushum (deklaratsiya)	1 079 450,0
5	Qo'shilgan qiymat solig'i	961 010,0
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	13 366 080,0
7	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i	44 937 000,0
8	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i	14 141 200,0
9	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i	17 852 000,0
10	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	4 617 000,0
11	Davlat boji	1 098 800,0
12	Jarimalari	1 572 900,0
13	Mahalliy soliqlar va yig'imlar	190 150,0
14	Davlat mulki bo'yicha ijara to'lovlari	466 000,0

Xalq deputatlari Yangihayot tumani
Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
II-24-142-14-220-K/25 -son qaroriga
2-ilova

**2026-yil uchun Yangihayot tumanining tuman mahalliy budjetidan
hududiy budjet mablaglarini taqsimlovchilarga ajratiladigan
mablag'larning cheklangan miqdorlari**

(ming so'mda)

№	Hududiy budjet mablag'lari taqsimlovchilar nomi	Mablag' miqdori
	Xarajatlar miqdori, jami	103 263 129,0
1	Maktabgacha va Maktab ta'limi bo'limi	40 229 439,0
	<i>shundan:</i>	
	“Mening maktabim”	1 050 600,0
2	Madaniyat makazlari	1 281 251,0
3	Sport bo'limi	6 205 321,0
4	Iqtisodiyot va moliya bo'limi	2 228 368,0
5	Ijtimoiy himoya milliy agentligining hududiy bo'limi Ijtimoiy ko'nikma markazi xarajatlari	207 855,0
6	Hokimiyat	30 826 114,0
	<i>shundan:</i>	
	Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi	1 642 352,0
	Madaniyat bo'limi	133 709,0
	Yoshlar ishlari agentligining tuman bo'limi	2 414 947,0
	Oila va xotin qizlar bo'limi	1 690 936,0
	<i>Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi</i>	9 888 000,0
	<i>“Mahalla budjeti” jamg'armasi mablag'lari</i>	2 035 000,0
	<i>Zaxira jamg'armasi</i>	953 610,0
7	Hokimiyat (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	47 047,0
	<i>shundan:</i>	
	<i>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari</i>	47 047,0

8	Obodonlashtirish boshqarmasi	22 237 734,0
---	------------------------------	--------------

Xalq deputatlari Yangiheyot tumani
Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
II-24-142-14-220-K/25 -son qaroriga
3-ilova

2026-yil uchun umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me'yorlari

Foiz hisobida

№	Tuman nomi	Soliq turi	Tuman budjetiga	
1.	Yangihayot tumani	Aylanmadan soliq	5%	
2.		Davlat boji	5%	
3.		Jarimalar	5%	
4.		Yigʻimlar	5%	
5.		Qoʻshilgan qiymat soligʻi	MRI	DSB
			0%	5%
6.		Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligʻi	0%	5%
7.		Jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan	0%	5%
8.		Foyda soligʻi	0%	5%
9.		Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	0%	21%
10.		Yuridik shaxslardan olinadigan yer soligʻi	0%	20%
11.		Qurilish materiallari boʻyicha yer qaʻridan foydalanganlik uchun soliq	100%	100%
12.		Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	100%	100%